



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ТАРИХ ВА МАДАНИЙ МЕРОС ФАКУЛЬТЕТИ
ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ, ФАЛСАФА
КАФЕДРАСИ**

**“БУХОРОНинг ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА
УНГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ”**

мавзуидаги халқаро илмий-амалий анжуман (видеоконференция)

МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

28-29-МАЙ 2020 ЙИЛ

БУХОРО, 2020 йил

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Илмий инновацион ишланма ва технологиялар ишлаб чиқаришга тадбиқ этишининг самарали механизмларини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 12 январдаги 24-сон қарори, 2019 йил 25 февралдаги 133-ф-сонли фармойиши ижросини таъминлаш шунингдек, Ислом таълим, фан ва маданият ташкилоти (ISESCO) 2019 йил 18 декабрда Тунисда бўлиб ўтган XI Ислом конференциясида 2020 йилда Бухоро шаҳри Ислом маданияти пойтахти деб эълон қилиниши ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-Ф-сон фармойишига асосан Бухоро давлат университети, Ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси томонидан 2020 йил 28-29-май кунлари “Бухоронинг Ислом цивилизациясидаги ўрни ва унга қўшган ҳиссаси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман ўтказилди. Мазкур халқаро илмий анжуманда Ислом цивилизациясида Бухоро маънавий мероси ва унинг ҳозирги даврда чет эллик ва Ўзбекистон олимлари томонидан ўрганилиши муаммолари, Абу Ҳафс Кабир Бухорий, Имом Бухорий ва юртимиздан етишиб чиқкан алломалар илмий меросининг маънавий тараққиётни таъминлашдаги роли ва жаҳолатга қарши курашдаги аҳамияти, жаҳон маданий мероси таркибида Бухородаги муқаддас қадамжолар зиёрат туризми обьекти ва динлараро мулоқотнинг муҳим манбаси, аждодлар илмий мероси илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга оид фундаментал тадқиқотлар негизи сифатидаги аҳамияти, илм-фан ва иқтисодиётнинг интеграциясини таъминлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари ва ечимлари доир тасаввуфшунос, исломшунос, тарихчи олимлар, файласуфларнинг маърузалари ҳамда шу соҳада илмий тадқиқотлар олиб бораётган мустақил тадқиқотчилар, докторант, магистр ва талабаларнинг илмий мақолалар ва тезислардан иборат илмий, илмий-оммабоп ишлари, изланишлари ушбу тўпламдан ўрин олган.

Тахрир ҳайъати:

**Ф.ф.н., доцент, Намозов Б.Б.
Ф.ф.д., профессор, Саломова Ҳ.Ю.
Ф.ф.н., доцент, Шарипова О.Т.,
Ф.ф.н., доцент, Шарипов А.З.**

ўқитувчилар:

**Ўразов Б.Б., Шокиров М.Р., Муртозаев Ш.Б.,
З.И.Нарзиев, А.Қ.Ширинов, Б.С.Турдиев**

BUYUK MUTAFAKKIRLAR MA’NAVIY MEROSIDA INSON –BEBAHO XILQAT

Buxoro davlat universiteti katta o’qituvchisi A.T.Qayumova

Buxoro davlat universiteti stajor-tadqiqotchilik instituti stajor-tadqiqotchisi O.O.Jalolov

Mayjudodlar ichida aziz va mukarram qilib yaratilgan inson o’zining aqli, ongi va tengsiz zakovati, odamiylik kabi fazilatlari bilan ulug’dir.

Inson paydo bo’lgandan beri, dunyoni, o’zini bilishga, atrof-muhitning sir-asrorlarini ochib borishga harakat qilgan. Ammo, doimo inson uchun eng murakkab muammo, bu uning o’zini, o’z mohiyatini anglash bo’lgan. Darhaqiqat, har bir muayyan tarixiy davrda inson muammosiga yondashishi ko’lami turlicha bo’lgan bo’lishi mumkin, lekin uning dolzarbli hech qachon o’zgarmagan. Bu borada muhtaram prezidentimiz shunday deydilar, “Biz so’ngi yetmish yil mobaynida davlatga qaramlik va sig’inish holatida yashadik. Mamlakatning, undagi barcha boyliklarning, mulkning egasi davlat, deb hisoblab keldik. Ana shu masalada ham konstitutsiyada tub burilish yasalgan. Ya’ni, asosiy qonunimizga, “Davlat, uning idoralari mansabdor shaxslari jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldir,” degan modda kiritilgan.

Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi”¹.

Jumladan, prezidentimiz o’zlarining oliy majlisga yo’llagan murojaatnomada ham inson omiliga chuqur e’tibor qaratadilar “Amaliy natija bilan mustahkamlangan, o’z mevasi, hosilini berayotgan islohot odamlarning qalbiga, yuragiga tez kirib boradi. Va bunday islohotni, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch to’xtata olmaydi. Eng muhim, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o’z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bugungi raxbarlar, foizlar, raqamlar qog’ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun uning hayotiy manfaatlarini ta’minlash uchun ishlashi shart. Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz, ko’p millatli xalqimiz bizdan rozi bo’ladi”.

Darxaqiqat, endilikda inson shunday murakkab vaziyatda qolgan bir sharoitda, o’zi yashayotgan o’zgarishlar muammo mohiyatini teran anglashi va ular yechimini aynan o’zidan anglashi kerakligini kun tartibida turgan eng muhim masala bo’lib qolmoqda. Bu esa o’z navbatida inson muammosini keng ko’lamida va chuqur taxlil qilishi borasida donishmand tarix oldida ham asosiy muammo va vazifa bo’lib kelganligi hech kimga sir emas.²

Jumladan o’z davrining buyuk siymolari, donishmandlari inson hayoti va uning mazmun-mohiyati to’g’risida asrlar osha yetuk tajriba, ilmiy mulohaza, sermahzul xulosalar chiqarib kelishgan. Sharq allomalaridan qomusiy olim Abu Nasr Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida talqin qilinadi. U insonning barcha oliyjanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni-baxtli bo’lish faqat ilm va ma’rifat orqali erishish mumkinligini ko’rsatadi. Insonning - biologik ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudoddir. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, zaruriyat qoldirish, sharoitga moslashish kabilalar hos. Inson boshqa mavjudodlardan sotsial xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong ishlab chiqarish shular jumlasidan. Qur’oni Karimning Al-asro surasida o’qiymiz: “Va panad karamna bani odama” (“odam bolalarini mukarram qilib yaratdik”), deyilgan. Shunga asosan, tasavvuf ahli ham insonni xudoning yerdagi halifasi, ikki olamning gul toji, deb ta’rif etadi. Xazrat Navoiy esa, “Mahbub ul-qulub” asarida “Odamiy shariful navnayindur” degan so’zni keltiradi. Ya’ni: “Odam ikki dunyoning eng aziz va eng sharif maxluqidir.” Parvardigor olamlarni yaratar ekan, maqsadi inson edi. Odam parvardigor husni – jamoli uchun ko’zgu bo’lsa inson bu ko’zguning mazxari-Tangri taollo qudrati va siru asrori” ilmu karomati aks etgan mo’jiza xilqat. Inson qalbi esa, Tangri ilmu va ishqining xazinasidir.

¹ Sh. Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.T.2017 58

² O’zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi.T.2019

XIX-XIII asrlarda Xo'jai Jahon nomini olgan insonshunos ruxshunos olim Abduxoliq G'ijduvoniy xazratlarining diniy tasavuffiy mavzularga tegishli risolalarida insonning ma'naviy ahloqiy jihatdan takomillashishiga qaratilgan fikr, tavsiya, pand- nasihadlar mavjudki, bular nafaqat o'z davri uchun, muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki hozirgi davr uchun ham ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvur ahlining asosiy maqsadi olam siru-asrorlarini bilib olishdir. Ular ta'limotiga ko'ra odam murakkab omixta mavjudod bo'lib, ikki jihatdan jismoniy va ruxiy tomonlardan iborat yuksalgan, tirik mavjudotdir. Odam jismiy, jasadiy tomonidan, "Olami asg'ar", ya'ni butun jismoniy ta'lim olamning kichiklashtirilgan holda o'z ichiga qamrab olgan mayda olami bo'lib, ruxiy ma'naviy jihatdan zamon va makonga bog'liq bo'limgan.

"Olami akbar" ya'ni ulkan ruxiy ravoniy dunyoning kichik shakldagisidir. Odam omuhtaligi tufayli ikki jihatga jismiy va ruxiy tomonga moildir. Jismiy jasadiy tomoni uni quyicha, pastga tortsa, ruxiy ravoniy jihat esa uni yuqoriga, yuksaklikka yetaklagan. Shuning uchun ham tasavvuf murshid-ustozlari odamlarni ikki turga: nuriy va noriy odamlarga taqsimlaganlar. Nuriy odamlar hayotda, yashashda o'zining haqiqiy abadiy tomoni, ruxiy, ya'ni ilohiy tomonga e'tibor berib, jismiy jasadiy tomonini chegaralaydi, nuriy odamlarni yashash qoidasi, tavakkal, ya'ni Haq Taolloh tomonidan belgilangan taqdirdiga tan berish, xilvatda yashash, uns-xoliqga yaqinlashish, vaxdat xudoning yakka-yu yagonaligiga to'la e'tiqodli bo'lishdan iboratdir.

Noriylar esa o'tga, olovga o'xshaydigan odamalar bo'lib, ular shaxvatga, jinsiy nafsga berilgan, qaxr-u g'azabni namoyon etib, turlicha xirslarga berilgan xasadgo'y, baxl odamlardir. Tasavvuf aqoida ta'limotiga ko'ra faqat nuriy bo'lgan shaxlargina o'zini muayyan to'g'ri hayot yo'liga solib, quyi tomoni bo'lmish istak- tilaklarini, orzu-xavaslarini chegaralab, nafsin tiyib, o'zini pok, sof etib haqiqiy ruhiy tomonga to'la berilib, yaratguvchi Allohga yaqinlashishi mumkin. Mana shunday shulardan biri, so'fiylik yo'lining asoschisi xazrat Abduholiq G'ijduvoniy edilar.

Huddi shuningdek, insonshunos alloma Aziziddin Nasafiyning ham bu boradagi fikrlari qimmatlidir. Uning fikricha inson koinotning nomi, ilohiy ilmlarning kichraytirilgan, mujassam nusxasi, insonda jami moddiy va ilohiy olamlar hislati nomujassam. Bu nazariya ofoq va anfus (ruxlар) ta'limotiga borib taqaladi.

Nasafiy buni "Al -inson ul-komil" asarida keng taxlil etgan. Inson o'z hilqati va nafsnini tanisa, ruxining gavharini poklab borsa, parvardigor nuriga g'arq bo'la oladi,-deb ta'kidlaydi olim. Inson ezgu hislatlar mujassam bo'lgan timsoldir.

"Tasavvuflar deb ta'kidlaydi professor Najmaddin Komilov inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan "Nafs" yoki "Nafsi ammora" deb ataydilar va unga qarshi urush e'lon qiladilar mol dunyo to'plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, xirsu xavas qat'iy qoralangan, insonni noqislik va falikatlardan qutqarishning birdab-bir yo'li-nafsin o'ldirib, qanoat bilan halol yashash, rux-irodani chiniqtirib, insonga insoniylikni, ya'ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ'ib qilingan"¹.

Buyuk arab tarixchisi, insonshunos olim Ibn Xaldun ham o'z qarashlarida kishilik jamiyatiga baho berar ekan, uning qonuniyatlarini o'rganar ekan, inson va inson omiliga diqqat bilan qaraydi, uni yetakchi vosita darajasiga ko'taradi. Bilim, qobilyat, munosabat bildirish, fikr yuritish, tasavvur qilish va idrok etish, insonning hayvondan farq qiladigan jihatlari hamda uni qadriyat darajasiga ko'taradigan ilohiy ne'mat deb biladi. Uningcha inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Bu olam rang – barang cheksiz va xilma-xildir. Shunga ko'ra inson har doim umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilishishga mahkum etilgan aql sohibi bebaxo xilqatdir.

Muhtasar qilib shuni aytish joizki, buyuk zotlar, allomalar ma'naviy merosi kelajagimiz davomchilari bo'lishi yoshlar tarbiyasida, ularning komil inson bo'lib yetishishlarida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

¹ Najmaddin Komilov. Tasavvuf.-T.1996,-153b.

Файбуллаев Саидахмадхон АЛИ ИБН МУҲАММАД РОМИШИЙ БУХОРИЙ ВА УНИНГ “УСУЛ АЛ-БАЗДАЙ” АСАРИГА ЁЗГАН ШАРХИ	499
Самадова Сарвиноз ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИНИНГ БАФРИЕНГЛИК ВА ИНСОНПАРВАРЛИК ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ	502
Умид Мавлянов АЛИ САФИЙНИНГ “ЛАТОИФ-УТ-ТАВОИФ” АСАРИ ҲАҚИДА	508
Alimova Shaxlo XOJAGON TARIQATIDA INSON KAMOLOT YO'LI	510
Ашурева Марҳабо ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙНИНГ “МАСНАВИЙ МАҲНАВИЙ” АСАРИДА ИНСОН БОРЛИФИ МАСАЛАЛАРИ	512
Б.Б.Деҳқонов ХОЖАГОН-НАҚШБАНДИЯ ТАЪЛИМОТИ ТАСАВВУФ ОЛАМИНИНГ АСОСЛАРИ СИФАТИДА	515
Arzikulov J.X. ABDULXOLIQ G`IJDUVONIYNING MA'NAVIY MEROSIDA BARKAMOL INSONNI TARBIYALASH MASALASI	520
Норбошева Мехри ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИ	522
Дилнавоз Бердиева ИСЛОМДА ДУНЁВИЙ ИЛМЛARНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ	526
Narzullayeva Gulchehra, Xamidova Zarina BUXORO ISLOM MADANIYATI MARKAZI.....	527
Ашурева Марҳабо ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ ТАЛҚИНИДА АЁЛЛАР СИЙМОСИ	529
Nunnanova.G. SHAYX ABU YA'QUB YUSUF HAMADONIYNING USTOZLARI VA SHOGIRDLARI	532
Pulatov Zarifjan PROGRESSIVE IDEAS IN “TEMUR TUZUKLARI”	535
Sevara Samadova, Nigina Umurova BUXORO MADANIYATI TARIXIDA BAHOUDDIN NAQSHBAND TA'LIMOTINING O'RNI.....	537
Қаюмов Дилшод ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА БУХОРО ОЛИМЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ.....	539
Мирзахмедов Хуршид ИМОМ АЛ-БУХОРИЙНИНГ «АЛ-АДАБ АЛ-МУФРАД» АСАРИДА ТОЛЕРАНТЛИК АҲЛОҚИ	542
Мираева Ферузахон XVII-XVIII АСРЛАРДА БУХОРОДА НАҚШБАНДИЯ-МУЖАДДИДИЯ ТАРИҚАТИ ШАЙХЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ	544
Сайдқулов Нуриддин ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИДА БАФРИЕНГЛИК МАСАЛАСИ	547
A.T.Qayumova, O.O.Jalolov BUYUK MUTAKKILAR MA'NAVIY MEROSIDA INSON -БЕВАНО XILQAT	549
Bozorova Lobar MANGULIKKA DAXLDOR MEROS	551
O'rakov Bobir, Xudoynazarova Lola MAVLAVIYA VA NAQSHBANDIYA TARIQATLARIDA INSON KAMOLOTI MASALASI	552
Азалишоҳ Ҳамроев БУХОРИЙ ШАРИФ: КЎҲНА ТАРИХ ВА МАДАНИЯТ, МУҚАДДАС ДИН ВА МИЛЛИЙ ЎЗЛИК ТИМСОЛИ	554
Мавлуда Раҳмонова СОМОНИЙ ДАВРИ АЛЛОМАЛАРИНИНГ ИСЛОМ МАДАНИЯТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ	556
Кудратов Ш.Ё.БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ТАШҚИ САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН.....	558
Исмаилов К.К., Абдуқадиров П.А. РОЛЬ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ БУХАРЫ В ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ	560
Nunnanova.G. YUSUF HAMADONIY TA'LIMOTIDA INSONNING TIRIKLIK MAZMUNINI, TANA VA RUH DIALEKTIKASINI ANGLASH MASALASI TAHLILI	562
А.Ҳ.Ахматов БУХОРО АДАБИЙ МУҲИТИ ВА ШАРИФЖОН МАҲДУМ.....	565
Fazilat Norova USTOZ SAID BURHONIDDIN SIRDONNING “SO'FIYLAR ILMI ASRORI” HAQIDA	567
Ортиков Отабек, Ботиров Темурбек ТАСАВВУФ ТАЪЛИМОТИНИНГ НАЗАРИЙ ВА МАҲНАВИЙ – АҲЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ	569
Rahima Norova TASAVVUF VA KOMIL INSON TUSHUNCHASI	571
Karimova Dilfuza ISLOM OLAMIDA IMOM ABU MANSUR MOTURIDIY ASARLARINING AHAMIYATI....	575
Нафиддинова Х.Р.БУХОРОДА НИКОҲ МАРОСИМЛАРИ	577
Мирзоев Хайём САЙФИЙ БУХОРИЙНИНГ “АРУЗ” РИСОЛАСИДА XV АСР АРУЗШУНОСЛИГИ МАСАЛАЛАРИ.....	579
Sadiqova Roza ABU ALI IBN SINO BORLIQ HAQIDAGI FALSAFIY TA'LIMOTI.....	582
Тожиева Ирода ИСЛОМ ҚОНУНШУНОСЛИГИГА НАСАФ ФАҚИХШУНОСЛАРИНИНГ ҚЎШГАН ҲИССАЛАЛАРИ	584
Қосимов Миржалол ШАМСУ-Л-АИММА САРАХСИЙНИНГ МАБСУТ АСАРИДА ЗАКОТ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	586
Muhammadiyeva Laziza BARKAMOL INSON TARBIYASI - NAQSHBANDIYA TA'LIMOTINING NEGIZI	587
Лола Азимова ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ РИВОЖИГА ҲИССА ҚЎШГАН МУТАСАВВИФ	589
Абдуҳамидов Исломбек ХОЖА АБДУЛҲОЛИҚ ҒИҶДУВОНИЙ – МУСУЛМОН ШАРҚИНИНГ ХОЖАИ ЖАҲОНИ	591
Nunnanova.G. SHAYX ABU YA'QUB YUSUF HAMADONIYNING USTOZLARI VA SHOGIRDLARI	593
Tursunkulov Nurali ISLOM TAFAKKUR TARZINING SHAKLALANISHIDA ABU HOMID G'AZZOLIYNING O'RNI	597
Хусен Хайруллоевич ДЖУРАЕВ БУХОРО ХАТТОТЛИК МАКТАБИ АСОСЧИСИ МИР АЛИ ҲИРАВИЙ ФАТҲОБОДИЙ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	598